

Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida, Jizzax viloyatida jami 3 975,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 119,7% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	3975,1	119,7
Jizzax shahri	1258,1	107,2
Arnasoy	37,8	122,8
Baxmal	91,5	105,4
G'allaorol	142,6	111,3
Sharof Rashidov	453,5	114,6
Do'stlik	97,5	189,5
Zomin	350,6	146,0
Zarbdor	89,8	151,0
Mirzacho'l	36,5	113,0
Zafarobod	43,8	147,0
Paxtakor	129,6	138,7
Forish	115,2	109,9
Yangiobod	17,8	177,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish hajmi 3070,5 mlrd so'mni, ulushni 77,2 % ni, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 118,2 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 649,1 mlrd so'mni (16,3 %), o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 156,6 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 255,4 mlrd so'mni (6,4 %), o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 447,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 172,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,1 % ga ko'payib, 12,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etgan holda 2 305,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,8 % ni yoki 1 222,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 134,3 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	447,4	2305,0	1222,6	172,7	107,3	134,3
Jizzax shahar	173,7	993,3	91,1	2,5 m	96,9	115,
Arnasoy	6,0	18,8	12,9	2,1 m	131,6	94,4
Baxmal	10,6	19,6	61,3	2,9 m	54,3	130,6
G'allaorol	8,9	70,6	63,2	102,8	99,7	130,0
Sharof Rashidov	16,7	372,0	64,8	-	106,6	138,6
Do'stlik	10,1	41,0	46,5	2,3 m	150,1	235,5
Zomin	89,7	196,6	64,4	117,2	166,7	140,7
Zarbdor	1,7	47,4	40,7	62,9	165,7	144,3
Mirzacho'l	3,9	15,6	17,0	75,8	128,9	112,9
Zafarobod	8,3	16,9	18,3	2,5 m	150,9	121,5
Paxtakor	12,1	17,2	32,9	3,9 m	124,7	146,6
Forish	8,6	79,6	27,0	162,7	98,2	146,9
Yangiobod	2,2	8,7	6,9	108,1	29,7 m	89,0

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Paxtakor (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,9 marta), Baxmal tumanlari (2,9 m) va Jizzax shahrida (2,5 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiobod (2024-yilning mos davriga nisbatan 29,7 marta), Zomin (166,7 %) va Zarbdor tumanlarida (165,7 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

K.Butunboeva
72 221-51-02 (2521)

Manzil:
